

BADIIY MATN TAHLILI YORDAMIDA O'QUVCHILARDA KREATIVLIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Bazarbayeva Rayxan Abdimumin qizi,

Nizomiy nomidagi O'zMPU Qozoq tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi
rayxan.bazarbayeva95@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18844699>

Annotatsiya. Zamonaviy axborotlashuv asrida innovatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishi jamiyatning har tomonlama o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Kundalik hayotda taniqdiy fikrlash, boshqalar bilan hamkorlikda muammolarni hal etish eng muhim vazifalardan biriga aylandi. Bu, o'z navbatida, boshlang'ich sinflar uchun mo'ljallangan davlat ta'lim standarti, o'quv reja, o'quv dasturi va darsliklar mazmunini milliy o'qitish va ilg'or davlatlar tajribalariga asoslangan holda takomillashtirish vazifasini ko'ndalang qo'yadi. Mazkur maqolada badiiy matn tahlilining o'quvchilar kreativlik kompetensiyasiga ta'siri, tahlil usullarining samaradorligi hamda bu jarayonni tashkil etishning didaktik imkoniyatlari o'rganiladi. Shuningdek, o'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar tahlil qilinadi va amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar. Kreativ, ijod, matn, kompetensiya, syujet, intellect, matn tahlili, obraz, nutqiy kompetentlik, badiiy matn, estetik.

Abstract. In the information age, the rapid development of innovative technologies is causing a comprehensive change in society. In everyday life, critical thinking, solving problems in collaboration with others has become one of the most important tasks. This, in turn, sets the task of improving the content of the state educational standard, curriculum, curriculum and textbooks for primary grades based on national education and the experience of advanced countries. This article examines the impact of literary text analysis on students' creative competence, the effectiveness of analysis methods, and the didactic possibilities of organizing this process. It also analyzes methodological approaches that serve to develop creative thinking in students and provides practical recommendations.

Keywords. Creative, creation, text, competence, plot, intellect, text analysis, image, speech competence, artistic text, aesthetics.

Аннотация. В современную информационную эпоху стремительное развитие инновационных технологий вызывает всесторонние изменения в обществе. В повседневной жизни критическое мышление, решение проблем в сотрудничестве с другими стало одной из важнейших задач. Это, в свою очередь, ставит задачу совершенствования содержания государственного образовательного стандарта, учебной программы, учебных планов и учебников для начальных классов на основе национального образования и опыта развитых стран. В данной статье исследуется влияние анализа литературных текстов на творческую компетентность учащихся, эффективность методов анализа и дидактические возможности организации этого процесса. Также анализируются методические подходы, способствующие развитию творческого мышления у учащихся, и даются практические рекомендации.

Ключевые слова: Творчество, креативность, текст, компетентность, сюжет, интеллект, анализ текста, образ, речевая компетентность, литературный текст, эстетика.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim sohasida chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Zamon talablariga mos, mustaqil fikrlovchi, yangilikka intiluvchi, ijodkor shaxsni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Xususan, o'quvchilarda kreativlik kompetensiyasini shakllantirish ularning shaxsiy va

ijtimoiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Kreativlik nafaqat san‘at yoki adabiyotda, balki har qanday kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli bo‘lishning asosiy omillaridan biridir.

Adabiy ta‘limda bu maqsadga erishishda **badiiy matn tahlili** muhim vosita hisoblanadi. Badiiy matnlar o‘quvchining estetik didini shakllantirish, hayotga ijodiy yondashuvni kuchaytirish, tanqidiy va tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Shu bois, adabiy matnni chuqur tahlil qilish orqali o‘quvchilarni mustaqil fikr yuritishga, obrazli tafakkur va ijodiy yondashuv asosida xulosalar chiqarishga yo‘naltirish zarurati ortib bormoqda.

Adabiyotlar tahlili. Adabiy ta‘limni boshlang‘ich sinflardan samarali yo‘lga qo‘yishning shartlari ko‘p. Ulardan biri ona tili o‘qish savodxonligi darslarida badiiy matn tahlilini o‘quvchilarning kreativ fikrlashini shakllantirishga yo‘naltirishdan iborat. Shu nuqtai nazardan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini badiiy matn tahlili orqali kreativ fikrlashga yo‘naltirishning quyidagi bosqichlarini belgilash maqsadga muvofiq:

Tadqiqot metodologiyasi. Tushunish bu ijodiy fikrlashning dastlabki bosqichi, qiziqish asosida rivojlanadigan fikrlash harakati. Bu badiiy asar matni ustida ishlash jarayonida “Nega?”, “Nima uchun?”, “Buni boshqacha qo‘llash mumkinmi?”, “Agar bunday qo‘llasa nima bo‘ladi?” kabi savollar atrofida harakatlanishni taqozo etadi. Ushbu jarayonda o‘quvchilarning asarda ko‘tarilgan muammo atrofida fikr almashishga, bahs-munozara o‘tkazishga imkoniyat yaratish orqali xulosa chiqarishga o‘rgatish maqsad qilinadi. Shuningdek, bahs-munozara asosida qahramonlar xatti-harakatlari, badiiy to‘qima asosidagi real haqiqatni izlab topish va adabiy bilimlarini to‘g‘ri qo‘llay olishga o‘rgatish uchun muhimdir.

Natijalar. Tanqidiy fikrlash orqali aniq maqsadga qaratilgan muayyan obyekt, fikr, xususiyat va boshqa tushunchalarni har tomonlama taqqoslab xulosa chiqarish. Buning uchun o‘quvchilar syujetdagi obrazlar, narsa-hodisalarning belgi va xususiyatlarini, manbalar va tushunchalarni yaxshi o‘zlashtirishi hamda tinimsiz izlanishlari lozim.

Mantiqiy fikrlashda matnda aks etgan axborot yoki ma‘lumotlarni dalillash va atroflicha tahlilni talab qiladigan ijodiy o‘ylashning alohida turi. Bunday vaziyatda qahramonlarning o‘ziga xosliklarini taqqoslash, ularning hayot tarzini diqqat bilan o‘rganish va fikrlarini tizimlashtirish bosqichlarining izchilligini saqlash kabi usullar qo‘llaniladi.

Samarali fikrlash o‘quvchining ijodiy fikrlashining eng yuqori bosqichi. Ushbu bosqichda o‘quvchi asardagi o‘ziga xos makon va vaqt bo‘yicha biror to‘siqsiz, maqsad sari yakuniy xulosaga erisha olishiga e‘tibor beriladi. Samarali fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan o‘quvchi matnda tasvirga olingan har qanday voqea-hodisa va ma‘lumotlardan yangi g‘oyalarni topa oladi. Ayrim tadqiqotchilar tomonidan samarali fikrlash kreativ fikrlash bilan bir xil deb hisoblanadi.

Kreativ fikrlash asosida intellektning teranligi, kengligi, moslashuvchanligi va tanqidiyligi namoyon bo‘ladi. Chunki bu bosqichda o‘quvchi tafakkuri va nutqi yuksak

darajada rivojlanadi. Shubhasiz, fikrlash qobiliyati rivojlangan sari nutqiy malakasi ham oshib boradi. Bu maqsaddagi badiiy matn ustida ishlashga doir topshiriqlar o'quvchilarni mustaqil ta'lim olishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish maqsadini ham ko'zlaydi. Bunda o'quvchilarning ijodiy ishlar, jumladan, loyiha ishlari, shaxsiy fikrini mustaqil bayon etishga oid topshiriqlar ustida ishlashi o'z samarasini beradi. Uzluksiz ta'limning "Milliy o'quv dasturi"da adabiyot o'qitish bilan bog'liq bir qator muammolar bayon qilingan. Jumladan, boshlang'ich sinflarga mo'ljallangan "darsliklarda o'quvchilarni badiiy matnlarni o'qish, tushunish, tahlil qilish, asar va uning qahramonlariga mustaqil baho berishga yo'naltirish o'rniga matnlarning mazmuni bayon qilinayotgani, tahlil bo'yicha tayyor maqola berilayotgani adabiyot saboqlarining nursiz, zerikarli, o'quvchilarning esa fikriy boqimanda bo'lishiga olib kelmoqda" [Adabiyot fani bo'yicha uzluksiz ta'limning "Milliy o'quv dasturi", 2021, 44-b.]. Bundan ko'rinadiki, o'quv dasturlariga asar tanlash, darsliklarda matnni o'zlashtirishga oid o'quv topshiriqlarining berilishiga tuzuvchilardan kreativ yondashuv talab etadi. Metodist N.I.Kudryashev asar tanlashning quyidagi jihatlariga e'tiborini qaratadi: "asarning yuksak g'oyaviy-badiiy qimmati hamda uning ahamiyatliligi; asarning ijtimoiy va adabiy-tarixiy jihatdan ahamiyatliligi; uslub va janriga ko'ra rang-barangligi, asarning yozuvchi ijodi uchun xos ekanligi; o'quvchilarning yosh xususiyatlari" [Kudryashev, 1981, 22-c.].

Professor R.Niyozmetova esa mazkur tarkibga "adabiy ta'lim maqsadiga monandligi"ni ham kiritadi" [Niyozmetov, 2010, 13-b].

"Ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklarida turli janrdagi asarlar va ilmiy ommabop maqolalar berilishi nazarda tutilsa, uning "obyektiv mazmuni butun borliq, mavjudot, uning turli tomonlari, dalillar va ularning bir-biriga ta'siri hisoblanadi. Badiiy asarda hayot obrazlar orqali tasvirlanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, badiiy asar markazida inson, uning jamiyat va tabiatga munosabati turadi" [Qosimova, 2009, 87-b].

"Gap shundaki o'quvchiga kerakli yordam o'qituvchi tomonidan emas, darslik tomonidan berilishi kutilayotgan natijani samarali qiladi. Chunki o'qituvchi topshiriqni muallimning buyrug'ini bajarish uchun emas, balki o'z kuchiga ishongan holda bajaradi. Unda dadillik, ishonch, tirishqoqlik ortadi. Boshqa vositalarga qaraganda darslik eng qiziq yoki tushunishi qiyin bo'lgan o'rinlarga qaytish va ularni keyinchalik mukammal o'ylab ko'rish imkonini berish bilan ustunlikka ega o'quvchining doimiy hamrohi. Uyda, maktabda, xohlagan vaqtda foydalanishi mumkin bo'lgan darslik o'quvchida yaxshi xulq tarkib topishida dastlab o'ziga jalb eta oladigan, qiziqtiradigan, o'ylantiradigan, o'tish davri yoshdagilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan bo'lishi lozimdir" [To'ychieva, 2005, 17-20-b.].

"Boshlang'ich sinf o'quvchilari matnga yaqinlashtirib hikoya qilishga eng ko'p murojaat qiladilar. Ularning matnni iloji boricha so'zma-so'z bayon etishlarining sababi, tajribalarning ko'rsatishicha, so'z zaxirasining kamligidir. Bunday nuqsonlari bartaraf etishning eng samarali yo'li o'quvchilarni matn mazmunini o'z so'zlari bilan ijodiy qayta

hikoya qilishga o'rgatishdir. Bunga quyidagi ish turlaridan foydalanish yaxshi natijalar berishi aniqlandi:

1. Matndagi asosiy fikrni anglatgan gapni aniqlash.
2. O'quvchilarni rasm asosida matn tuzishga o'rgatish.
3. Berilgan matn yuzasidan ssenariy tuzdirish.
4. Shazsiy kuzatishlar asosida hikoya qilishga o'rgatish.
5. Asar qahramon (lar)ini tavsiflash.
6. Matndagi epizodlarni o'zgartirib qayta hikoya qilish.
7. Asosiy qahramon o'rniga o'zini qo'yib hikoya qilish.
8. Turli matnlardagi qahramonlarni taqqoslash.
9. Matn mazmunini kengaytirib (qisqartirib) hikoya qilish.
10. Matndagi asosiy g'oya yuzasidan yangi hikoya tuzish" [Sariev, 2010, 42-6.].

Shu bois matn tahlilida yuqoridagi kabi jihatlarga e'tibor qilish kreativlik ko'nikmalari rivojida muhim o'rin tutadi.

Xulosa. Boshlang'ich sinflarda badiiy matn ustida ishlash uni o'qish va tahlil qilishdan iboratdir. O'qish va didaktik (o'quv) tahlilni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Professor Q.Yo'ldoshev ta'kidlaganidek, "O'quv-didaktik tahlil badiiy asarning hozirgi hayotiy va badiiy mantig'i hamda estetik o'ziga xosligini anglash orqali o'quvchilarda ezgu ma'naviy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan jamoa shaklidagi estetik-pedagogik faoliyatdir" [Yo'ldosh, 2016, 48-b.].

Asar matni ustidagi ish, avvalo, uni o'qishdan boshlanadi. Badiiy asar tahlili murakkab jarayondir. Bu o'qituvchining yordami bilan amalga oshiriladi. O'quvchilarni o'quv tahliliga o'rgatish tizimli va ko'p mehnat talab qiladi. Badiiy asar matni ustida ishlash bilan bog'liq o'quv tahlili o'qish savodxonligi darslaridagi asosiy vazifadir. Tahlil jarayonida o'quvchilarning yosh xususiyatlari, tafakkur darajalari, ruhiy rivojlanish bosqichlarining holatlarini hisobga olish... o'quvchilarni ijodiy fikrlash, badiiy tahlil va nutqiy kompetentlikka o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adabiyot fani bo'yicha uzluksiz ta'limning "Milliy o'quv dasturi". Loyiha. – Toshkent, 2021. – 44-b.
2. Кудряшев Н.И. Взаимосвязь методов обучения на уроках литературы. – М.: Просвещение, 1981. – С. 22.
3. Ниёзметов Р.Х. Ўзбек тили дарсларида янги ўзбек адабиётини ўқитиш масалалари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2010. – 13-б.
4. Qosimova K. va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009. – 87-b.
5. Сариев Ш. Бошланғич синф ўқиш дарсларида матн устида ишлаш орқали нутқ ўстириш. – Тошкент: YURIST-MEDIAMARKAZI, 2010. – 42-б.
6. Тўйчиева М. Адабиёт дарсликларидаги савол ва топшириқлар ҳақида // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 2005. – № 3. – Б. 17–20.
7. Йўлдош К., Йўлдош М. Бадий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак, 2016. – 48-б.